

**BOSHLANĞICH SINF DARSLARINI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA
TASHKIL ETISH**

Yusupova Gulshiraxan Zinatdinovna

Qoraqolpoğiston Respublikasi pedagogik mahorat markazi

“Maktabgacha, boshlangich va maxsus tálím metodikalari” kafedrasi dotsenti., (PhD).

[**https://doi.org/10.5281/zenodo.17052009**](https://doi.org/10.5281/zenodo.17052009)

Annotatsiya. Maqola boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirish yo‘llariga bag‘ishlangan. Unda yangi avlod darsliklarining yaratilishi, o‘quvchilarda kreativ, kritik va kollovarativ qobiliyatlarining shakillanishida o‘qituvchilarining zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish zarurati, 1-sinf “Informatika” darsligi yuzasidan namunaviy dars ishlanma yoritib berilgan.

Kalt sózlar: Boshlang‘ich sinf, yangi avlod darsliklari, o‘qituvchi, kasbiy mahorat, pedagogik texnologiyalari, sifatli ta’lim, informatika.

Аннотация. Статья посвящена путям повышения профессионального мастерства учителей начальных классов. В ней освещается создание учебников нового поколения, необходимость эффективного использования учителями современных педагогических технологий в формировании креативных, критических и коллaborативных способностей учащихся, типовая разработка урока по учебнику "Информатика" для 1-го класса.

Ключевые слова: Начальная школа, учебники нового поколения, учитель, профессиональные навыки, педагогические технологии, качественное образование, информатика.

Abstract. The article is dedicated to ways to improve the professional skills of primary school teachers. It covers the creation of a new generation of textbooks, the need for teachers to effectively use modern pedagogical technologies in the formation of students' creative, critical, and collaborative abilities, and the typical lesson design for the 1st-grade "Informatics" textbook.

Keywords: Primary school, new generation textbooks, teacher, professional skills, pedagogical technologies, quality education, computer science.

Jahon hamjamiyatida chiddat bilan integratsiyalashuv jarayoni kechayotgan bugungi kunda taraqqiyotning asosiy omillari sifatida jamiyat a’zolarining kreativ, tanqidiy va kollovarativ faoliyk darajasi e’tirof etilib, xalqaro tashkilotlar hamda dunyoning aksariyat mamlakatlari tomonidan 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta’lim konsepsiyasida “bilimning mustahkam poydevoriga ega bólish va kreativ fikrlashni rivojlantirish, hamkorlik qobiliyatları va qiziqishlarini kuchaytirish”¹ dolzarb vazifa sifatida qayd etilgan. Bu, óz navbatida boshlangich ta’lim óqituvchilarining pedagogik mahorati zaruriyatining yuzaga kelishiga sabab bólmoqda. Mazkur muammo ustida ishslash orqali o‘qituvchilarga yangi bilimlar va amaliy ko‘nikmalar singdirilishi, natijada bolalarga sifatli ta’lim berish imkoniyatlari yanada kengaytirilishi maqsad qilingan.

¹ Incheon declaration/Education 2030: Towards incluzive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea). 6p. 26 P.

Bu óz navbatida katta yangiliklardan ilgóx xorijiy davlatlar tálim tajribalar asosida yaratilgan hozirgi vazirlilikning 280-sonli buyrug'i bilan o'quv dasturi takomillashtirilgan holda 2023-o'quv yildan 1-4-sinflarga yangi darsliklari joriy qilindi [2]. Jamiyatimizda raxamli texnologiyalar bong urayotgan davrda yangi darsliklar shakl va mazmun jihatidan butunlay o'zgargan. Bu borada o'qituvchilarimiz XX asr metodikasidan voz kechib, XXI asr metodikalaridan samarali foydalanishni talab qiladi.

Xop, ushbu darsliklar quruq ma'lumotlarni yodlatish, yoki shunchaki o'qish-yozishni o'rgatish bilan cheklanmaydi. Ular orqali o'quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo'lgan hayotiy ko'nikmalarni ham o'rganadi. Shu borada tákidlash joyizki, mamlakatimizda tálim yeti ta (o'zbek, qoraqolpoq, rus, qozoq, turkman, tojik va qirgiz) tillarda olib boriladi. Yangi ovlad darsliklari esa 2023- o'qish yildan o'zbek va rus tilida olib boriladigan boshlang'ich sinflarda joriy qilindi. Qolgan besh ta tilda olib boriladigan 1-3 sinlarda milliy dastur asosida yaratilgan darsliklardan, 4-sinflarda esa, 2017-yilgi kompetentsiyaga asoslangan dastur asosida yaratilgan darsliklardan tálim olayapti. Yangi óquv yildan darsliklar qolgan beshta tidagi maktablarga 2025-26-o'qish yilda kelishi kutilmoqda. Bu mamlakatimizning tálim tizimidagi tafabutni ko'rsatadi.

Boshlang'ich ta'lif maktab ta'limining asosiy bosqichlaridan biri bo'lib, bolalarning o'quv faoliyatiga kirib borishi, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishi va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhim rol o'yaydi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi esa bu jarayonning asosiy ishtirokchisi va boshqaruvchisidir. Ular bir tomondan, o'quv materiallarini tushunarli tarzda yetkazish bilan birga, o'quvchilarning psixologik, ruhiy va jismoniy rivojlanishiga ham e'tibor berishlari lozim. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mahorati, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va texnologiyalar bilan tanishligi har doim dolzarb mavzu bo'lib keladi.

Ushbu tafabutni yengillashtirishda pedagogik markazimizga kelgan yangi darsliklardan dars bermaydigan boshlang'ich sinf o'qituvchilarining 1-sinf "Informatika" darsligidan bittda dars ishlanmani tavsiya etmoqchimiz/

Fan: Informatika

Sinf: 1.

Mavzu: Biz nimalarni eshitamiz?

Maqsad:

- O'quvchilar tovushlar va ovozlarni quloqlar orqali eshitishlarini, eshitish orqali axborotga ega bo'lishlarini bilib oladilar;

- Narsalarining to'plamlarini ajratish ko'nikmasiga ega bo'ladi.

Dars turi: Yangi bilim beruvchi dars.

Darsda qo'llaniladigan metodlar: "Suhbat," Yakka va juftlikda ishslash metodlari, "Ortiqchasini top," "Ovozlarni o'xshatish" amaliy mashg'ulotlari.

Darsni jihozlash: darslik, kompyuter, videoproyektor, quloqchin, fanidaskop, qo'l telefoni, quloq rasmi va qo'ng'iroqcha, it va jo'janing rasmlari, qo'l soati, telefon.

Darsning borishi.

I Tashkil etish. (2 daqiqa.) O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashib, ularning darsga ishtirokini tekshiradi.

II O‘tilgan dars yuzasidan refleksiya o‘tkazish. (10 daqiqa) Har bir bolani suhbatga jalgiladi.

III Yangi mavzu bayoni. (13 daqiqa).

O‘qituvchi: Bolalarni doira shaklida o‘tqazib, - Bolalar ertalab uyqudan turib uydan mактабгача bo‘lgan masofada qanday ovoz va tovushlarni eshitganingizni yoningizda o‘tirgan do‘stingizning qulog‘iga aytasiz. Bolalar eshitgan tovush va ovozlarni bir-birining qulog‘iga aytay boshlaydilar. O‘qituvchi bolalarni to‘xtatib, bir-birining qulog‘iga nima deb aytganini so‘raydi.

Bolalar o‘rtoqlarining aytgan so‘zlarini aytib beradilar. O‘qituvchi ularning harakatiga qarab rag‘batlantiradi.

So‘ng o‘qituvchi slaydlar yordamida tovushlar va ovozlar nimalardan chiqishini aytib tushuntiradi. Ayrim eshitish asboblari haqida so‘zlab beradi.

IV Mustahkamlash. (18 min.)

Topshiriq 1. O‘qituvchi o‘quvchilarning quloqchinlarini mahkam taqib olishlarini aytadi. So‘ng audioni qo‘yib, bolalarga quyidagi savollarni beradi.

- Ovozni eshitdingizmi?
- Ovozni eshitish uchun nima yordam berishi mumkin?



Rasm 1.

- Sekin ovozni eshitishda ovozni kuchaytiradiganidan foydalanamiz.
- Qattiq ovozlardan quloqlarimizni berkitib olamiz.

2-topshiriq.

1. Rasmdagi mayjudotlar qanday ovoz chiqaradi?
2. Qaysi birining ovozi eng past chiqadi?
3. Qaysi birining ovozi baland chiqadi?



Rasm 2

3-topshiriq.

Quyidagi rasmdagi qaysi buyum ortiqcha?



Rasm 3

O‘qituvchi: - Bolalar mana bu maqolning ma’nosini kim tushuntirib beradi? - deb so‘raydi.

Yuz marta ko‘rgandan,
 Bir marta eshitgan yaxshi.
 Bolalar o‘z fikrlarini aytadilar.
 So‘ng o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

V Darsni yakunlash. (2 daqiqa)

Unda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, uzlusiz ta’lim, psixologik va pedagogik bilimlarni chuqurlashtirish, amaliy tajriba almashinish, o‘z-o‘zini rivojlantirish kabi muhim yo‘nalishlar

Foydalangan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni. 2019-yil 29-aprel.
2. Abdullaeva M. "Boshlang‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalar." – Toshkent: "Ilm Ziyo", 2021
3. Yusupova G. "Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ faoliytni shakllantiruvchi metodlar", – Toshkent: "Tafakkur qanoti", 2021.
4. F. M. Zakirova. "Informatika va axborot texnologiyalari" 1-sinf, – Toshkent: "Novda", 2021.
5. www.uzedu.uz – Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining rasmiy veb sayti
6. onlinedeu.uz – Uzlusiz kasbiy ta’lim platformasi.